

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA TIL VA NUTQ HODISALARINING O'RGANILISHI

Rajabova Irodaxon Shokir qizi

**Axborot texnologiyalari va menejment
universiteti 1-bosqich magistranti**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15037261>

Annotatsiya

Til va nutq, dialektikasida til o'ziga xos murakkab tuzilishga (strukturaga) ega bo'lgan bir butun sistema sifatida faoliyat ko'rsatadi. Til "tashqi" jihatdan ham moddiy, ham psixik hodisa. Uning moddiyligi – tovush materiyasi bo'lsa, psixik hodisaligi xotirada saqlanish xususiyatidir. Tilning ijtimoiy vazifasi moddiylikda ko'rinadi. Tildagi moddiylik so'z, so'z birikmasi va morfemalarning tovush materiyasiga o'ralganligida namoyon bo'ladi. Xuddi shu xususiyat tildan ijtimoiy maqsadda foydalanish imkoniyatini beradi.

Kalit so'zlar: til, nutq, o'zbek tili, tafakkur, Sistema, faoliyat, lison, jamiyat.

ИЗУЧЕНИЕ ЯЗЫКОВЫХ И РЕЧЕВЫХ ЯВЛЕНИЙ В УЗБЕКСКОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация

Язык и речь, в своей диалектике, язык функционирует как целостная система со своей сложной структурой (структурой). Язык – это "внешнее" явление, как материальное, так и психическое. В то время как его материальность – звуковая материя, его психическая феноменальность-это свойство сохраняться в памяти. Социальная функция языка проявляется в материальности. Материальность языка проявляется в том, что слово, словосочетание и морфемы заключены в звуковую материю. Эта же особенность позволяет использовать язык в социальных целях.

Ключевые слова: язык, речь, узбекский язык, мышление, система, деятельность, язык, общество.

THE STUDY OF LINGUISTIC AND SPEECH PHENOMENA IN UZBEK LINGUISTICS

Annotation

Language and speech, in its dialectic, language functions as an integrated system with its own complex structure (structure). Language is an "external" phenomenon, both material and mental. While his materiality is sound matter, his psychic phenomenality is the property of being preserved in memory. The social function of language is manifested in materiality. The materiality of language is manifested in the fact that words, phrases and morphemes are enclosed in sound matter. The same feature allows you to use the language for social purposes.

Keywords: language, speech, Uzbek language, thinking, system, activity, language, society.

Kirish. Tilshunoslik boshqa fanlardan ajratilib, o'zicha alohida mustaqil fan sifatida tanilgan davrlardayoq til va nutqni farqlashga e'tibor berilgan edi. Ammo fan taraqqiyoti tarixi davomida hamma jihatdan ham til bilan nutq bir-biridan farqlanavermadi. Shuning uchun, ko'pincha, nutqqa xos hodisalar til hodisasi sifatida talqin qilinib kelindi.

Til va nutq bir-biriga bog'liq hodisalardir. Til nutq uchun moddiy material, bu material asosida nutq tashkil topadi. Tildagi hamma narsa til jamoasi uchun umumiy bo'ladi. Tilda ruhiy va moddiy material mavjud bo'lib, so'zning kishilar xotirasidagi obrazli ruhiy material, nutq yaratilish jarayonida qo'llaniladigan so'z shakllari, morfemalar, tovushlar moddiy material hisoblanadi. Tilning ruhiy hodisa ekanligi uning ongda saqlanishi bo'lsa, moddiy hodisaligi undagi til vositalari orqali belgilanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Nutq – bu til deb ataluvchi, o'ta muhim vazifalarni bajaruvchi noyob quroldan foydalanish jarayoni, til birliklari imkoniyatlarining borliq, tafakkur, ong hamda vaziyat kabi hodisalar bilan munosabatda namoyon bo'lishidir. Nutq harakatdagi til bo'lib, nutq a'zolarining harakati jarayonida paydo bo'ladi va so'z shakllari, so'z birikmalari va gaplardan tashkil topadi. Nutq madaniyati, madaniy gapirishga intilish tushunchasi barcha xalq tillarida qadimdan mavjud.

Til va nutq hodisalariga o'zaro farqlab yondashishni dastlab VIII-IX asrlarda arab tilshunosligida, keyinchalik tilning turli qirralarini uzviy tarzda birlashtirib, uni yaxlit bir butunlik, bir sistema sifatida o'rganuvchi (XX asrning 20-yillarida shakllangan va sistem-struktur tilshunoslik nomi bilan mashhur bo'lgan) tilshunoslik namoyandalari V.Gumboldt, A.Shteyntal, Boduen de Kurtene[1] ta'limotlarida uchratamiz.

Umumiy nazariy tilshunoslikning asoschisi, til ilmining buyuk bilimdoni yevropalik Vilgelm fon Gumboldt til masalalariga – tilning ta'rifi muammosiga alohida jiddiy ahamiyat bergan. Aniqrog'i, V.fon Gumboldt tilning mohiyatini ochishda, unga asosli ilmiy ta'rif berishda antinomiya (Antinomiya lotincha anti (qarshi) va nomos (qonun) so'zlaridan tashkil topib, qonundagi qarama-qarshilik ifodasini beradi) metodini (usulini) qo'llaydi. Ya'ni u antinomiya usuli orqali tilning mohiyatini, tabiatini ilmiy yoritib berishga harakat qiladi va bu jarayonda til sistemasiga nisbatan bir qator antinomiyalarni qayd etadi. Bular:

1.Til va tafakkurning o'zaro dialektik munosabati, ya'ni:

a) til va tafakkur o'zaro ajralmas, bir butundir;

b) til va tafakkur o'zaro "ajraluvchi", ichki qarama-qarshilikka egadir".

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Boshqacha aytganda, til tafakkurni, fikrni ifodalash uchun xizmat qiladi. Tafakkur (fikir) til orqali yuzaga chiqadi. Tilsiz tafakkur, tafakkursiz til yo'q. Ayni vaqtda til (til materiali) moddiy, tafakkur esa ruhiy (psixik). Til tashqi (shaklan), tafakkur esa ichki, til aniq (eshitish va ko'rishga ko'ra), tafakkur esa mavhum, til – real, tafakkur esa – irreal.

2.Til – faoliyat, harakat, o'zgarish, o'zgaruvchanlik. Ayni vaqtda til faoliyat mahsuli, turg'un, barqaror, bunyod etilgan o'zgarmaslikdir. Demak, til bir vaqtning o'zida ham faoliyat, jarayon, ham faoliyat mahsuli sifatida mavjuddir. "Aslida esa, V.Gumboldt fikricha til – faoliyat mahsuli (ergon) emas, balki faoliyatdir (energia). Demak, til faoliyat mahsuli sifatida diaxron (tarixiy) kategoriya bo'lsa, til faoliyat sifatida sinxron (zamonaviy) kategoriyadir. Anig'i, til faoliyat sifatida nutqdir, nutq faoliyatidir, nutq jarayonida voqelanishdir. Til faoliyat mahsuli sifatida asrlardan asrlarga o'tib boruvchi, jamiyat taraqqiyoti bilan barobar qadam tashlovchi taraqqiyot mezonidir, muayyan tarixiy norma (me'yor)dir.

Xullas, ushbu antinomiya asosini hozirgi tilshunoslikda talqin etilayotgan lison (til) va nutqning o'zaro munosabati, til va nutq dialektikasi tashkil qiladi.

3. Tildagi ijtimoiylik (sotsiallik) va shaxsiylik, alohidalik (individuallik) orasidagi antinomiya. Til individga, shaxsga tegishli bo'lgani holda, ayni vaqtda, o'zida ijtimoiy (sotsial)

jarayonlarni, faktorlarni aks ettiradi, ma'lum bir jamiyat uchun umumiydir.

4. Til muayyan sistema sifatida mavjud bo'lgani holda, ayni vaqtda, nutq faoliyatining alohida aktlari ko'rinishida voqelashadi.

5. Til (nutq) va nutqni tushunish antinomiyasi. Nutq va nutqni tushunish, anglash nutqiy faoliyatning muhim, eng asosiy jihatlarini tashkil qiladi. Shunga ko'ra jamiyat a'zolari o'rtasida kommunikativ jarayon amalga oshadi.

6. Til amaliyotidagi obyektiv va subyektiv jihatlar. Aytmoqchimizki, har bir inson obyektiv ravishda jamiyat mahsuli bo'lgan tildan, uning qonun-qoidalaridan foydalanadi. Subyektiv ravishda esa har bir inson o'z nutqi faoliyatida tilning taraqqiyotiga, undagi o'zgarishlarga, yangiliklarning yuzaga kelishiga xizmat qiladi, ta'sir ko'rsatadi.

7. Lisoniy jarayondagi jamoaviy (kollektiv) va shaxsiy (individual) jihatlar. Tildagi individual jihatlar shundaki, til, aniqrog'i, nutq shaxsga - individga xos bo'lib, alohida shaxslarning faoliyati hisoblanadi, ya'ni nutq-individual, shaxsiy. Til esa ijtimoiy hodisa bo'lib, jamoa mahsulidir. Boshqacha aytganda, til – sotsial, ijtimoiy.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Demak, alohida shaxslar – individlar o'z nutqida – nutq faoliyatida jamiyat a'zolari tomonidan yaratilgan tildan foydalanadilar, fikr almashadilar. Lekin til bilan nutq hodisalarini va ularga xos birliklarni ilmiy va amaliy farqlash, shu tushunchalarni batamom yangi mazmunda qo'llash Ferdinand de Sossyur va uning izdoshlari yaratgan ta'limot bilan bog'liqdir. Lison(til) va nutqning farqlanishi, tilga tizim sifatida yondashuv XX asr jahon tilshunosligida inqilobga teng hodisa sifatida baholandi. Chunki bu hodisa tilshunoslikdagi mavjud qarashlarni tubdan o'zgartirib yubordi. Tilga, xususan, o'zbek tiliga sistema sifatida yondashuvning dastlabki yillarida lison o'rnida til atamasi qo'llanilib, bu so'z ko'p ma'nolilik tabiatiga ega bo'lganligi sababli, ayrim chalkashliklarni keltirib chiqarardi, chunki insonning nutq so'zlash qobiliyati ham, nutqi ham shu atama bilan yuritilar edi. Atamalarga esa, odatda, bir ma'nolilik xosdir.

Bir qator olimlar til va nutq o'zaro farqlanmaydi, aslida farqlanmaydigan bitta obyekt mavjuddir, til va nutq bir narsa, desa, boshqa bir qator olimlar til va nutqni farqlash, albatta, kerak, bular farqlanadi, degan g'oyani ilgari suradi. Til va nutq dialektikasida til o'ziga xos murakkab tuzilishga (strukturaga) ega bo'lgan bir butun sistema sifatida faoliyat ko'rsatadi. Demak, F. de Sossyur mutlaqo to'g'ri ta'kidlaganidek, til sistemadir. Til sistemasining bir-biri bilan uzviy bog'langan tovush tomoni, lug'at tarkibi, grammatik qurilishi mavjud bo'lib, ular birgalikda bir butunlikni, sistemani tashkil qiladi. Tilning sistem xarakteri aslida qayd etilgan sathlar, qatlamlar (yaruslar) bilan belgilanadi, asoslanadi. Ayni vaqtda ushbu sathlarning har biri o'ziga xos sistema – ichki sistema bo'lib, til sistemasining tarkibiga kiradi. Demak, til sistemalar sistemasini – supersistema, makrosistema sifatida jamiyatga xizmat qiladi, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'ladi, ijtimoiy-amaliy vazifa bajaradi.

Til va nutqqa aloqador fikrlarni Koshg'ariy asarlarida ham ko'rish mumkin. Koshg'ariy til va nutqning asosiy birligi bo'lgan so'zga e'tibor qaratib, leksikolog, seminolog, semisiolog, leksikograf sifatida to'xtalar ekan, bunda so'zning ma'no anglatish, bir so'zning o'z va ko'chma ma'noda kelish xususiyatiga diqqat qaratadilar. Bu haqida "Devon-u lug'otit turk"[2] asarlarida yetarlicha ma'lumot qoldiradilar. Navoiy bilan zamondosh Koshifiy ham "Futuvvatnomayi sultoniyy" asarida til va nutq masalasiga atroflicha e'tibor qaratib fikr va mulohazalarini bergan. Ular shunday yozadilar. "Agar so'z senikimi yoki sen so'znikimi, deb so'rasalar aytgil: men so'zniki va so'z esa menikidir. Chunki so'z insonlik daraxti mevasidir,

mevani daraxtdan , daraxtni mevadan ajratib bo'lmaydi" [3:75]. So'zni farzandga qiyos etib, yaxshi so'zni qobil farzand atasa, nomaqbul so'zni noqobil farzandga qiyos etadilar. Bu kabi misollarni juda ko'plab keltirish mumkin. Ammo til va nutq haqidagi asosiy o'rganish ishlari XX asr tilshunosligining — sistem tilshunoslikning bosh, asosiy mezonini til va nutq munosabati, til va nutq hodisalarini, birliklarini farqlash bo'ldi.

Ushbu muammo tarixiga nazar tashlasak, professor Ne'matovning ma'lumot berishicha, til va nutq hodisalarini o'zaro farqlash dastlab VII-IX asrlarda shakllangan arab tilshunosligining til o'rganish usullarida ko'rish mumkin[4]. Ta'kidlash shart, til va nutq, dialektik munosabati o'zining dastlabki haqiqiy, mukammal ilmiy-nazariy yechimini tilshunoslik fanida keskin burilish yasagan buyuk tilshunos olim Ferdinand de Sossyur asarlarida topdi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). F. de Sossyur fikricha, til kishilik jamiyatida bajaradigan funksiyasiga ko'ra aloqa quroli, fikrni ifodalaydigan vositadir. Ijtimoiy tabiati jihatidan-qaralganda til madaniy-tarixiy va ijtimoiy hodisadir. Ichki tuzilishiga ko'ra til sof belgilar sistemasidir. F. de Sossyurning ta'rificha, tilshunoslik fanining obyekt shartli belgilar sistemasi bo'lgan tilni o'rganishdir. Shuning uchun ham tilshunoslik belgilarni o'rganadigan semiotik fanlar qatoriga kiradi. F. de Sossyurning ta'kidlashicha, insonning nutq faoliyati ko'p tomonlama hodisa bo'lib, falsafa, psixologiya, fiziologiya, antropologiya, filologiya kabi turli fanlar tomonidan o'rganilishi lozim. Shuning uchun nutq faoliyatini o'rganishda F. de Sossyur ham V. fon Gumboldt kabi antinomiya metodidan foydalandi. Tilshunoslik fanining chegarasini, predmetini aniqroq ta'riflash maqsadida F. de Sossyur til bilan nutqni ajratib, bir-biriga qarama-qarshi qo'ydi. Uning fikricha, til nutq faoliyatining faqat bir tomonini tashkil etadi. Til bilan nutqning asosiy farqi - til ijtimoiy, nutq esa individual hodisadir. Til bilan nutqning o'zaro munosabatini F. de Sossyur quyidagi sxemada ko'rsatadi: (Ijtimoiy tabiati jihatidan qaralganda til madaniy-tarixiy va ijtimoiy hodisadir. Ichki tuzilishiga ko'ra til sof belgilar sistemasidir). Garchi, F. de Sossyur til bilan nutq o'rtasidagi o'zaro bog'lanishni e'tirof etsa-da, ikkala hodisani alohida-alohida o'rganishni taklif qildi. Fanning bu ikkala tomonini o'rganish uchun F. de Sossyur til lingvistikasi va nutq lingvistikasi degan nom ham berdi. F. de Sossyur fikriga ko'ra, tilshunoslik fanining asosiy vazifasi va predmeti til lingvistikasini o'rganishdan iboratdir. Nutq lingvistikasi esa tilshunoslik uchun ikkinchi darajali masala bo'lib, boshqa fanlar tomonidan o'rganilishi mumkin. F. de Sossyur ichki va tashqi lingvistikani ajratib, ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'ydi. Uning fikricha, tilshunoslik fanining asosiy vazifasi tilning ichki qurilishi (strukturasi)ni o'rganadigan lingvistika, tashqi lingvistika esa tilning xalq madaniyati, tarixi bilan aloqasini o'rganadigan lingvistika bo'lib, tilshunoslik fani uchun ikkinchi darajali hodisadir. Tilshunoslik fanining predmetini yanada aniqroq tasavvur etish maqsadida F. de Sossyur tilni o'rganishda sinxronik (bir vaqtda) va diaxronik (ketma-ket, tadrijiy suratda yuz beradigan yoki tarixiy) aspektlarni ajratib, bir-biriga qarama-qarshi qo'ydi va ko'proq sinxronik aspektga ahamiyat berdi. F. de Sossyur fikricha, sinxronik aspekt bilan diaxronik aspektlar o'zaro bog'liq bo'lib, ma'lum aspektni tanlash o'z oldiga qo'yilgan ilmiy maqsadlarni nazarda tutadi. Sinxronik aspekt til sistemasini o'rganadi, ammo diaxronik aspekt o'rganadigan obyekt esa sistemani tashkil qilmaydi. F. de Sossyur nazariyasida asosiy antinomiya til va nutq antinomiyasidir. Yuqorida ko'rib o'tilgan tashqi va ichki lingvistika, sinxroniya va diaxroniya antinomialari til va nutq aitinomiyasining natijasidir. Shunday qilib, F. de Sossyur nazariyasi tilshunoslik fanining

predmetini o'rganishga qo'shilgan katta hissa bo'ldi. F. de Sossyur nazariyasi ta'sirida XX asrda "Strukturalizm" nomi bilan atalgan yangi lingvistik oqim vujudga keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. Расулов Р. Умумий тилшунослик. – Тошкент: Fan va texnologiya markazi, – 2010. – 323 Б.
2. [Маҳмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони \(Девони луғотит турк\). 3 жилдлик. 1-жилд. Таржимон ва нашрга тайёрловчи: Солиҳ Муталлибов. Тошкент: Фан, 1960.](#)
3. Хусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи султоний ёхуд жавонмардлик тариқати, Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриети, 1994. – 112 б.
4. Неъматов Ҳ., Бозоров О. Тил ва нутқ, – Тошкент: Уқитувчи, 1993. – 32 б.